



AMIR TEMUR - ADOLATPARVAR DAVLAT BOSHIG'I

Ulashev Mirzo-Ulug'bek¹, M.Muqimova²

¹ SamDU Yuridik fakulteti 202-guruh talabasi

² Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5910880>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Yanvar 2022

Ma'qullandi: 20- Yanvar 2022

Chop etildi: 25- Yanvar 2022

KALIT SO'ZLAR

Amir Temur, Qobulxon,
Temur tuzuklari,
Ilyosxo'ja, Qissai Temur,
Qochuvli Baxodir,

ANNOTATSIYA

Ushbu tatqiqot materiallardagi fikrlar Amir Temur va uning davlatchilik tarixi, Davlat boshqaruvi Qo'shin masalasi va O'rta asr davlatchilikning Huquqiy holatiga bag'ishlangan materiallar asosida tayorlangan

Muxtaram Prezidentimiz Sh.M Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek " Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalrimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning e'zgu a'nanalari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda."¹ Degan fikrlariga isbot sifatida bizning yurtimizda buyuk davlatchilik asoschisi Amir Temur haqida bir qancha ma'nbalar yaratildi va bu boradagi ishlar davom ettirilyapti Amir Temur kelib chiqishi bo'yicha barlos urug'idan, ya'ni turkiy xalqlaridan bo'lib, bevosita mo'g'ul xonlari avlodidan bo'lmaganligi uchun U o'zinni xon deb atay olmas edi. Chunki o'sha davr

udumlariga(odatlariga)ko'ra, xonlik chingiziylar nasliga mansub bo'lib, bu maxsus axdnomada ham qayd etilgandi. 1360-1361 yillarda mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon mo'g'ullar hokimyatidan qutulishga harakat qiloyatgan Movrounnahrga ikki marta qo'shin tortib , bu yerning hokimyatini o'z o'g'li Ilyosxo'jaga topshirib , Temurni esa unga bosh qo'mondon etib tayinlaydi.Temurning bobosi Qochuvli Baxodir (barlos qabilasining birinchi boshlig'i) va Ilyosxo'janing bobosi Qobulxonlar o'rtasidagi po'lat taxtaga yozib imzolangan ahdnomaga ko'ra "ulug'lar ahdiga vafo qilish yuzasidan sipoh solarlikni(qo'mondonlikni)qabul qildim ",- deydi U o'z "Tuzuklarida"da² O'zbek xalqining o'tmishinni mashxur olimlar va davlat arboblari bilan birga, Maxmud



G'aznaviy, Sotuk bug'roxon, Jaloliddin Manguberdi, Sul-ton Qutuz, Amir Temur, Bobur, Shayboniyxon, Ubaydullaxon birinchi, Abdullaxon ikkinchi kabi mashxur yirik askarboshilar ham bezab turadi. Ammo ana shu sarkardalar faoliyat ko'rsatgan davlatlardagi xarbiy-huquqiy masalalar Amir Temur davlatidagidek murakkab tizimga ega emas edi. ya'ni qo'shin, davlat hududi, huquqiy xujjatchilik yaxlit holatga kelishi, chegaralar daxlsizligi kabi ko'plab o'rta asr davlatchilik muammolari deyarli Amir Temur asos solgan davlatda. U hukmronlik qilgan davrda deyarli uchramagan.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 24-maydagi №2995- sonli Qaroridan

2. Qissai Temur (Mal'uzotiy Temuriy).-Toshkent 2001.185 bet

Amir Temur davridagi harbiy yurishlar hamda harbiy huquq shu soha bilimdonlarining diqqatini tortgan va bu haqda ba'zi ilmiy ishlar yozilgan. Jumladan, Rossiya imperiyasi bosh shtabi harbiy - ilmiy komitetining a'zosi M.I.Ivanin 1836-1845 yillarda. «О военном искусстве и завоеваниях монгола – татарских среднеазиатских народов при Чингизхане и Тамерлане» asarini yozgan. Bu asar harbiy jurnalda chop etilgan. Muallif 1874 yilda ushbu asarni to'ldirib qayta ishlaydi. Kitob to'la holda 1875 yilda sankt-Peterburgda Bosh shtabning harbiy ilmiy komiteti tomonidan nashr etiladi. Ushbu ishning asosiy ba'zasida «Temur tuzuklari» va boshqa tarixiy ma'nbalar bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlarning harbiy sa'nati Rossiyaning harbiy o'quv yurtlarida ushbu asar asosida o'qitilishi joriy qilingan.¹ Amir Temur kishilarning birligi, bir bo'lishlari, jiplashuvlari katta siyosiy-

huquqiy ahamiyatga ega ekanligini aytadi. «shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlishtirdim, deb yozadi «Tuzuklar»da, -Birlik ittifoqlari shunday ediki, barilari go'yo bir tandek edilar. Barchalrining maqsadlari, ra'ylari, so'zlari va ishlari bitta edi. Bir ishni qilaylik, deb qaror qilsalar, tugatmaguncha qo'l uzmas edilar»² Ijtimoiy adolat va haqiqat qadriyati Amir Temur ma'naviy salohiyatida o'ta muhim o'rin tutgan. «Kuch Adolatdadir» «mening saltanatimda kimki mukofotga loyiq ish qilsa, mukofotsiz qolmaydi, jazoga loyiq ish qilsa, jazosiz qolmaydi» shiorlari benazir davlat arbobining ijtimoiy faoliyatida, siyosatida ma'naviy mezon bo'lib xizmat qilgan. Amir Temur tomonidan yozib qoldirilgan «Tuzuklar» Boburiylar ulkan imperiyasining huquqiy poydevorini ham tashkil etib, nafaqat yurtimiz va boshqa sharq mamlakatlari va yevropaning davlat va huquqiy tizimiga undan keying davrlarda ham katta ta'sir ko'rsatdi. Biz davlatchilik va huquqiy me'rosimizni yanada chuqur o'rganish, uni qadrlash va undan foydalanishga yanada e'tibor kuchaytirishimiz lozim. Amir Temur davri davlatchilik tarixi va huquqini haqqoniy o'rganish keng masala xisoblanadi. «Temur Tuzuklari» Amir Temur davlatining huquqiy xolatini ochib beruvchi asosiy ma'nbadir. Tuzuklarning nusxa va tarjimalarining ko'p bo'lishi jaxon kutubxonalarida keng tarqalganligi albatta, yaxshi, ammo shu bilan birga ularning qaysi biri asl nusxaga yaqinligi, qaysisiga qo'shimchalar kiritilganligi aniqlash muammosi ham bor. Shu adabiyotlarga va o'quv darsliklarga yanada bir xillikni ta'minlansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Amir Temur va Temuriylar tarixiga doir qat'iy tarixiy voqealar ssenariysini ishlab chiqish lozim chunki keying yillarda.



Respublikamizning Tarixiy hududlariga turistik sayoxatlar amalga oshirish borasida keng ishlar olib borilsada lekin tarjimon (gid)larning tarixiy shaxslarimizga nisbatan o'ransiz fikrlar bildirishlari biror bir qatiy manbaga asoslanmagan fikrlar berishlari. Tariximizga nisbatan har xil nopisandlik

fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin deb o'ylayman.

1"Ikki buyuk sarkarda : CHingizxon va |Amir Temur Toshkent: :
Fan , 1994, 240-bet

2 Temur Tuzuklari -Toshkent, 1996, 92-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.SH.Mirziyoyev 2017 yil 24- maydagi "Qadimiy yozma ma'nbalarni saqlash tadqiq va targ'ib qilish chora tadbirlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" №2995-sonli qaroridan.
2. Temur Tuzuklari -Toshkent, 1996, 92-bet
3. Amir Temur hamda Temuriylar davlati va Huquqi. professor Z.Muqimov "Navro'z" Toshkent-2020.
4. internet ma'nbalari Ziyoz.uz